

MUQIMJON NURMATOV HIKOYALARIDA MA'NAVİY-AXLOQIY QARASHLAR

Ruziboyev Bobir

JDPU mustaqil tadqiqotchisi (PhD), Bulung'ur tuman MMTB ga qarashli 69-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi boburroziboyev07@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Muqimjon Nurmatovning ma'naviy-axloqiy mazmun bilan sug'orilgan qatra hikoyalari tahlil qilinadi. Muallifning "Nasihat", "Hisobli dunyo ekan", "Xushomadgo'y", "Ota o'g'il", "Kampirsho", "Ig'vogarning o'limi", "Bemaza qovunning urug'i", "Dilozor", "Ko'rmaganning ko'rgani...", "Besh kunlik dunyo", "Hayot boshqa" kabi hikoyalarida insonning ma'naviy qashshoqligi, noto'g'ri tarbiya, oilaviy munosabatlarning buzilishi, boylik va odamiylik o'rtasidagi ziddiyat, hasad, xudbinlik, mehr-muruvvat kabi dolzarb masalalar yoritiladi. Shuningdek, "Kesib tashlashdi", "Ildizi baquvvat", "Boyo'g'li va kapalak" kabi allegorik qatra hikoyalarda ramziy obrazlar orqali inson ma'naviyatidagi bo'shliqlar, ularning jamiyat hayotidagi salbiy oqibatlari falsafiy yo'sinda talqin etiladi. Tadqiqotda Nurmatov hikoyalarining asosiy g'oyasi — insonni ma'naviy poklik, odamiylik, mehr, halollik kabi yuksak fazilatlarga chorlash ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Muqimjon Nurmatov, qatra hikoya, ma'naviyat, axloq, qissachilik, allegoriya, oilaviy tarbiya, ma'naviy qashshoqlik, odamiylik, ramziy obraz, axloqiy muammolar.

Annotatsiya: Maqolada Muqimjon Nurmatovning ma'naviy-axloqiy mazmun bilan sug'orilgan qatra hikoyalari tahlil qilinadi. Muallifning "Nasihat", "Hisobli dunyo ekan", "Xushomadgo'y", "Ota o'g'il", "Kampirsho", "Ig'vogarning o'limi", "Bemaza qovunning urug'i", "Dilozor", "Ko'rmaganning ko'rgani...", "Besh kunlik dunyo", "Hayot boshqa" kabi hikoyalarida insonning ma'naviy qashshoqligi, noto'g'ri tarbiya, oilaviy munosabatlarning buzilishi, boylik va odamiylik o'rtasidagi ziddiyat, hasad, xudbinlik, mehr-muruvvat kabi dolzarb masalalar yoritiladi. Shuningdek, "Kesib tashlashdi", "Ildizi baquvvat", "Boyo'g'li va kapalak" kabi allegorik qatra hikoyalarda ramziy obrazlar orqali inson ma'naviyatidagi bo'shliqlar, ularning jamiyat hayotidagi salbiy oqibatlari falsafiy yo'sinda talqin etiladi. Tadqiqotda Nurmatov hikoyalarining asosiy g'oyasi — insonni ma'naviy poklik, odamiylik, mehr, halollik kabi yuksak fazilatlarga chorlash ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Muqimjon Nurmatov, qatra hikoya, ma'naviyat, axloq, qissachilik, allegoriya, oilaviy tarbiya, ma'naviy qashshoqlik, odamiylik, ramziy obraz, axloqiy muammolar.

Abstract: The article analyzes Mukimjon Nurmatov's short stories imbued with spiritual and moral content. The author's stories such as "Advice", "It's a calculated world", "Khushomadgoy", "Ota o'g'il", "Kampirsho", "The death of the deceiver", "The seed of a melon", "Dilozor", "What the unseen saw...", "Five-day world", "Life is different" highlight such pressing issues as human spiritual poverty, improper upbringing, disruption of family relationships, the conflict between wealth and humanity, envy, selfishness, kindness. Also, allegorical short stories such as "They cut off", "The root is strong", "The owl and the butterfly" interpret the gaps in human spirituality and their negative consequences in social life in a philosophical way through symbolic images. The study emphasizes that the main idea of Nurmatov's stories is to call a person to high qualities such as spiritual purity, humanity, kindness, and honesty.

Key words: *Mukimjon Nurmatov, short story, spirituality, morality, storytelling, allegory, family upbringing, spiritual poverty, humanity, symbolic image, moral problems.*

KIRISH

O'zbek adabiyoti vakillaridan biri Muqimjon Nurmatovning "Nasihat" sarlavhasi ostidagi ko'ngildagi gaplaridan iborat turkum kichik hikoyalari bugungi kundagi insonlar ma'naviyati bilan bog'lik ko'pgina muammolarni aks ettirganligi bilan ahamiyatli. Bu turkumdagi har bir kichik hikoyaning o'z sarlavhasi bor. Undagi 1-hikoya bo'lgan "Nasihat"da bir yoshi katta avval katta lavozimlarda ishlab keyin so'fi bo'lib olgan bir kimsaning ayoli vafot etgan insonga tezroq uylanishni maslahat berayotganligi, lekin bu gapni hozirgina onasidan ayrilgan o'g'illar ham hayrat bilan eshitib turganlari aks ettirilgan. Xulosa qismida esa marhumning hurmati degan tushunchaning insonda yo'q ekanligi uning ma'naviyatidagi qusur sifatida ko'rsatiladi.

"Hisobli dunyo ekan" deb nomlangan hikoyachada Sherali tarang degan bir kimsaning o'z oilasini tashlab boshqa ayol bilan ketib qolgani, lekin vaqti kelib o'sha o'yin-kulgusi tugagach, uyiga qaytib kelganida bu paytda voyaga yetgan bolalari uni qabul qilishni istamaganlari, lekin onalari bu odamni kechirib, ular bilan yashashiga ruxsat etganligi, lekin ona vafotidan so'ng farzandlar uni haydab yuborishganligidan keksaligida yoshlikdagi nojo'ya qilmishi uchun xoru zor bo'lib yurganligi haqida so'z borgan. Ya'ni insonning oiladay muqaddas go'shani pisand qilmay, hayotning xoyu xavaslariga uchishining natijasi keksayganida xoru zorlik bilan qaytishi ko'rsatib berilgan. Bu orqali kishilarning ma'nan qashshoqligi o'ziga zarar ekanligi xususida so'z borgan.

Navbatdagi hikoya "Xushomadgo'y" deb nomlangan. Unda bunday kimsalarning qudrati har qanday insonni o'z domiga torta bilganida va vaqti kelib uning yordami bilan yuqoriga chiqqan paytida esa o'sha o'ziga yordam bergan kimsani bosib o'tib ketishdan ham toymasligida ekanligini aytib o'tadi. Bunda ham ayrim ma'naviyatdan yiroq kimsalarga xos bo'lgan bu qusurning odamiyligni oyoq osti qila olish qudrati xususida so'z borgan.

Keyingi hikoyacha "Ota o'g'il" deb nomlanadi. Unda bir xonadondagi mehmondorchilik, uy egasining hammaga sensirab, bepisandlik bilan munosabatda bo'lishi, buni davradagilar mezbanning erkaligi deya qabul qilayotganlari haqida so'z boradi.

Lekin davraga kirib kelgan 4-5 yoshlardagi bolachaning ham xuddi shunday ters va qo'pol ekanligi, bir odamning unga so'rashmoqchi bo'lib uzatgan qo'li muallaq qolishi, mezbom ham kelib tizzasiga o'tirib olgan o'g'ilchasiga so'rashishni xohlamasa bir so'kib qo'yishini aytishi bilan bola ham boya unga qo'l uzatgan odamni qo'pol ravishda so'kish voqeasi aks ettirilgan.

Shu o'rinda muallifning "Kimdir kuldi, kimdir baralla "otao'g'il" deya hazilga yo'ydi. Xullas, bola xonadan chiqib ketguncha uning ustidan gap bo'ldi. Lekin bolakayning qo'lidani olib so'rashmoqchi bo'lgan tanishimizning ziyofat tugaguncha ham chehrasi ochilmadi.

Meni esa ona suti og'zidan ketmay turib odamlar ko'nglini darz ketkazishni kasb qilayotgan bu "otao'g'il"dan nimani kutish mumkin degan savol o'ylantirardi" [1,100], - deya yakunlaydi va hamma zamonlar uchun ham dolzarb bo'lgan inson ma'naviyatining oilada shakllanishi masalasini ilgari suradi.

Navbatdagi hikoyacha “Kampirsho” deb nomlangan bo‘lib, hikoyachi qahramon bolalikdagi do‘stini uchratib qolishgani, u qo‘yorda-qo‘ymay ularni o‘z uyiga olib borgani, o‘zi haqida tinmay gapirib, ota o‘rnida otalik qilib, singillarini chiqargani, uy-joyini yaxshilagani va hozir qaerga qo‘lini cho‘zsa yetadigan holatga kelgani haqida so‘zlagani xususida hikoya qiladi.

Lekin mehmonxonasi ostonasida onasining duosini olish maqsadida to‘xtagan mehmonlarga: “Kampirshoning duosini olib yotibmiz-da”, deya xohlamaygina ularni chekka bir xonaga boshlab borib, onasiga aytgan so‘zlari ham o‘sha zaylda ekanligi ko‘rinadi: “Turing kampirsho, o‘rtoqlarim kelishgandi, sizni ziyorat qilib ketaylik, deyishyapti” deyishi, torgina xona o‘rtasiga to‘shalgan o‘rinda ushoqdekkina bo‘lib o‘tirgan onaning choy dog‘idan sarg‘ayib ketgan piyolani yashirishga urinishi va ko‘zlaridagi mung unga bu uyda bo‘ladigan munosabatni dalolatlab turardi. O‘z volidasini ona deb atashni xohlamagan bu odamning uyida uzoq o‘tirmasdan ketishlariga ham shu sabab bo‘ladi.

“Ig‘vogarning o‘limi” hikoyasida G‘urbatillo deya ramziy nom qo‘yilgan qahramon qo‘shnisi 90 yoshdan oshgan Ibrohim otaning qazo qilgani va janozasiga tumonat odam to‘planganligini ko‘rib, o‘zining ustidan yozgan yumaloq xatini bir yirtmoqchi bo‘ladi, lekin yana fikridan qaytib, joyiga yashiradi. Lekin miyasiga o‘zining janozasiga ham shuncha odam kelarmikan, degan fikr keladi. Ertasiga o‘zini o‘lganga soladi. Hamma ishonib, uni yuvib-tarab ko‘mishadi. Unga ham shuncha odam keladi. Lekin qabrga qo‘yilgandan so‘ng shuncha-baqirib-chaqirsa ham odamlar uning tirilishini istamaganlari uchun ham ortlariga qaramay ketishadi. “Qabrida ham tinch yotmaydiya, xumpar”, deya yo‘llarida davom etishganidan bu odamning ma‘nan tubanlashib ketganligi odamlar uning yashashidan ko‘ra o‘limini ma‘qul ko‘rishini ko‘rsatadi.

Yana bir hikoyacha “Bemaza qovunning urug‘i” deb nomlangan bo‘lib, unda ko‘p bolali qo‘shnisining ustidan kulgan maishatparast er-xotinning farzandsizlik dog‘ida kuyganlari xususida so‘z borsa, “Dilozor” qatra hikoyasida “sen odam bo‘lmaysan” deya urushadigan, uni tartibga, bilim olishga chaqiradigan o‘qituvchisini keksayganida ko‘rib qolgan va o‘zi mashinada, u kishi velosipedda ekanligini ko‘rgan o‘quvchining “aravangiz o‘sha-o‘sha-ku, domla”, velosipedning ham joni qattiq bo‘lishi haqidagi so‘zlaridan so‘ng, o‘qituvchining “senga o‘xshab velosipedim ham o‘sha-o‘sha” deyish orqali javob qaytarishi orqali jamiyatda mana shunday ma‘naviyati buzuq, noraso kimsalar ham mavjudligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Mazkur hikoyalarda bugungi kundagi boylik orttirish va uni sarflash bilan bog‘liq muammoga ham to‘xtanilgan qatralar mavjud bo‘lib, “Ko‘rmaganning ko‘rgani...” hikoyachasida boyligini savob uchun sarflayotgan, ya‘ni maktab tomini yangilab, qishloq yo‘llarini asfalt qilib berayotgan suvoqchining o‘g‘li haqida “ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” qabilida g‘iybat qilayotgan, chekkasi siniq sopol kosada ovqatlanayotgan kimsa xususida so‘z boradi.

U chekka va qorong‘i xonadagi temir sandiqdagi boyligi “jinday” kamayganligini, xotini kenjatoyi qistovi bilan bir-ikki marta temir sandiqni ochib ko‘rganligini ko‘rib, gup etib yiqilishi uning boyligining quli ekanligini ko‘rsatgan. Yemay-ichmay, faqat sandiqqa to‘plangan boylik o‘ziga ham buyurmaganligi uning ham ma‘nan qashshoq kimsa ekanligini dalolatlagan.

“Besh kunlik dunyo” hikoyasida esa shu kuni bilan yashagan kimsaning o‘lganidan so‘ng hech kim tomonidan eslanmaganligi, lekin ko‘plab imoratlar qurgan, xalqqa xolis xizmat qilgan ustaning xalqning yodidan o‘chmaganligi haqida so‘zlanadi.

“Hayot boshqa” deb nomlangan qatrada otaning o‘z farzandlariga “Nafi tegmagan ishga qo‘l urmang. Qalovini topsang qor yonadi. Dunyo orttirish payida bo‘linglar. Qo‘lingda davlating bo‘lsa, senga ta‘zim qilishaveradi. Mehr-muruvvat, odamiylik – bular bari kitobiy so‘zlar – hayot boshqa” [1,106], degan so‘zlaridan so‘ng farzandlar u aytganday yashaganlari, mol-dunyo orttirishga shunchalik berilib ketganlaridan, nafi tegmay qolgan keksa otalarini ham unutib qo‘yganliklari haqida so‘z boradi. Ota nima ham deya oladi, nima eksang, shuni o‘rasan naqli shu o‘rinda esga tushishi muallif tomonidan ta‘kidlanishi orqali oiladagi tarbiyaning inson ma‘naviyati shakllanishidagi o‘rni masalasi yana bir bor esga olinadi.

Muqimjon Nurmatovning qatra hikoyalari orasida masalga o‘xshash allegorik obrazlardan foydalanib yaratilganlari ham mavjud bo‘lib, ulardan biri “Kesib tashlashdi” deb nomlanadi.

Unda baqaterak qiyg‘os gullagan o‘rikka uning mevasini olaman deganlar shoxlarini qayirib, kaltaklashlari, undan ko‘ra meva tugishga bergan kuchini bo‘y o‘stirishga berib, kerilib yashashini maslahat beradi. Lekin o‘rik meva tugmasdan yasholmasligini aytib, yelka qisib qo‘yaqoladi.

Bir oz vaqt o‘tgach, odamlar baqaterakni o‘rikni to‘sib qo‘yayotganligi uchun kesib tashlashadi. Ya‘ni hayotda insonlarga na‘fing tegib yashamasang, sening boringdan yo‘g‘ing yaxshi degan xulosa kelib chiqadi.

“Ildizi baquvvat” qatrasida yantoqning ildizi baquvvat bo‘lganidan harchand yulqilasa ham shamol uni sug‘irolmaganligi aks ettirilishi orqali jamiyatdagi ayrim tikanakdek zulmkor odamlarning hech mansabidan tushmasligi ularning o‘zidan ham yuqoridagi pushtipanohlari tufayli ekanligi eslatiladi.

“Boyo‘g‘li va kapalak” qatrasida hayotda bor-yo‘g‘i bir kungina yashaydigan kapalakning undan zavqlanishiga g‘ashi kelib gapirgan boyo‘g‘liga kapalakning “Sening yorug‘likdan qo‘rqib zulmatda kechgan yuz yillik umringdan ko‘ra gullar iforidan sarxush bo‘lib mamnun o‘tkazgan bir kunlik umrim afzalroqdir”¹⁷, degan javobini berishini aks ettirish orqali muallif inson butun hayotini zulmatda, zalolatda o‘tkazmasdan, bir kun bo‘lsa ham yorug‘likda, do‘stlar, oilasi davrasida tinch-osuda yashashi kerakligi haqida aytmoqchi bo‘ladi.

Xulosa. Ko‘rinadiki, Muqimjon Nurmatov yaratgan qatra hikoyalar ma‘naviy-axloqiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, har bir hikoyada bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan ko‘plab mavzular, xususan, boylik va odamiylik, mehr-muruvvat, noto‘g‘ri tarbiya va uning oqibatlari, otalar va bolalar munosabati, yaxshilik va yomonlik, hasadgo‘ylikning oqibatlari kabi ko‘plab mavzular shular jumlasidan.

Muallifning masal-qatralari ham o‘ziga xos falsafiy mazmunning ma‘naviy tushunchalarga yo‘g‘rilgan holatdagi ifodasi sifatida yaratilgan bo‘lib, bu qatralarda ham allegorik obrazlar orqali inson ma‘naviyatidagi bo‘shliqlar va ular keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari ifodalanadi.

¹⁷ Муқимжон Нурматов. Шайтондара. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 110.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muqimjon Nurmatov. Shaytondara. – T.: Sharq. 2008. – 110 b.
2. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
3. A.Rasulov. Badiiylik –bezavol yangilik. –T.: Sharq, 2007.
4. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr. 2010.
5. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. –T.: Yangi asr avlodi. 2004.